

BUXORO AMIRLIGINING ROSSIYA IMPERYASI TOMONIDAN BOSIB OLINISHI

*No‘monov Kamronbek Kozimjon o‘g’li
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali talabasi
kamronbeknomonov76@gmail.com, +998 91 054 14 06*

THE CONQUEST OF THE BUKHARA EMIRATE BY THE RUSSIAN EMPIRE

*No‘monov Kamronbek Kozimjon o‘g’li
Student of the Tashkent Kimyo International
University of Namangan Branch
kamronbeknomonov76@gmail.com, +998 91 054 14 06*

ЗАВОЕВАНИЕ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ

*Нумонов Камронбек Козимжонович
Студент Наманганского филиала Ташкентского Международного
Университета Кимё
Email: kamronbeknomonov76@gmail.com,
+998 91 054 14 06*

Annotatsiya: Mazkur maqolada Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayoni tahlil qilingan. XIX asr o‘rtalaridan boshlab Markaziy Osiyo ustidan geosiyosiy raqobat kuchaygan bo‘lib, bu hududda Rossiya va Britaniya imperiyalari o‘rtasida “Buyuk o‘yin” boshlangan. Tadqiqot davomida Rossiya harbiy yurishlarining sabab va oqibatlari, Buxoro amirining siyosiy qarorlari, va ikki davlat o‘rtasida tuzilgan shartnomalar tarixiy manbalar asosida tahlil qilindi. Shuningdek, protektorat maqomining amirlik siyosiy mustaqilligiga ta’siri ham ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, protektorat, XIX asr, harbiy yurishlar, Kaufman, shartnomalar, Markaziy Osiyo.

THE CONQUEST OF THE BUKHARA EMIRATE BY THE RUSSIAN EMPIRE

Abstract: This article analyzes the process of the Russian Empire’s conquest of the Bukhara Emirate. Beginning in the mid-19th century, geopolitical rivalry intensified in Central Asia, leading to the so-called “Great Game” between the Russian

and British Empires. The study examines the causes and consequences of Russian military campaigns, the political decisions of the Emir of Bukhara, and the treaties signed between the two states, based on historical sources. The impact of protectorate status on the emirate's political sovereignty is also discussed.

Keywords: Bukhara Emirate, Russian Empire, protectorate, 19th century, military campaigns, Kaufman, treaty, Central Asia.

ЗАВОЕВАНИЕ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИЕЙ

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс завоевания Бухарского эмирата Российской империей. С середины XIX века усилилась геополитическая борьба за Центральную Азию между Россией и Британской империей. В исследовании анализируются причины и последствия военных походов, политические решения эмира Бухары и подписанные договоры между двумя государствами на основе исторических источников. Также рассматривается влияние статуса протектората на политическую независимость эмирата.

Ключевые слова: Бухарский эмирят, Российская империя, протекторат, XIX век, военные походы, Кауфман, договор, Центральная Азия.

KIRISH

XIX asr Markaziy Osiyo tarixida tub burilishlar davri bo'ldi. Bu davrda yirik imperiyalar — xususan, Rossiya va Buyuk Britaniya o'rtaqidagi geosiyosiy raqobat mintaqada o'z ta'sir doirasini kengaytirish istagiga asoslangan edi. Buxoro amirligi, Qo'qon xonligi va Xiva xonligi kabi davlatlar bu ikki yirik kuch o'rtaida strategik maydonga aylangan edi. Ayniqsa, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasining janubiy ekspansiyasi uchun asosiy nishonga aylandi. Rossiyaning Hind okeaniga yo'l ochish, janubdagi chegaralarini mustahkamlash va mintaqada inglizlar bilan strategik ustunlikni qo'lga kiritish niyatlari Buxoro amirligi tomon yurishni tezlashtirdi. Buxoro esa o'zining qadimiy tarixiga, boy madaniyatiga va islomiy markaz sifatidagi mavqeiga qaramay, harbiy va siyosiy jihatdan bu bosimlarga bardosh bera olmadi.

Buxoro amirligining bosib olinishi faqatgina harbiy kuch vositasida amalga oshirilmagan, balki Rossiyaning mohirona yuritgan siyosati, diplomatik bosimi va iqtisodiy manfaatlarini ilgari surish orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilgan murakkab jarayon edi. Rossiya dastlab Sirdaryo bo'ylarida joylashgan Qo'qon xonligiga qarshi yurishlar bilan o'z harakatlarini boshlab, 1865-yilda Toshkentni egalladi. Bu bosqinchilik harakati, tabiiyki, Buxoro amirligi tomonidan xatar sifatida qabul qilindi. Amir Muzaffar bu holatga javoban ruslarga qarshi harbiy harakatlarga tayyorlana boshladi. Biroq Buxoro harbiy kuchi texnik va strategik jihatdan Rossiya

armiyasiga qarshi tura olmas edi. Shu sababdan dastlabki to‘qnashuvlar — xususan, Erjar, O‘ratepa va Jizzax janglarida Buxoro qo‘shini og‘ir mag‘lubiylarga uchradi.

Buxoro amirligi bilan Rossiya o‘rtasidagi to‘qnashuvlar, ayniqsa, 1866-yildan boshlab jadallashdi. Rossiya harbiy qo‘mondonlari — Romonovskiy va keyinchalik fon Kaufmanning yurishlari mintaqada harbiy ustunlikni Rossiya foydasiga keskin burdi. Aynan Erjar va Jizzaxdagi hal qiluvchi janglarda Buxoro qo‘shinining katta yo‘qotishlarga uchrashi Rossiyaga Samarqand sari yo‘l ochdi. 1868-yilgi Zirabuloq jangi esa Buxoro amirligi tarixidagi eng muhim burilish nuqtasi bo‘lib, aynan shu jangdan keyin amir Muzaffar Rossiya bilan og‘ir shartlar asosida tinchlik sulhi imzolashga majbur bo‘ldi. Bu sulk natijasida Jizzax, O‘ratepa, Xo‘jand va Samarqand kabi shaharlar Rossiya imperiyasi tarkibiga o‘tdi, amirlik esa Rossiya protektoratiga aylandi. Bu amalda Buxoroning siyosiy mustaqilligiga yakun yasadi.

Rossiya imperiyasi Buxoroni nafaqat harbiy jihatdan, balki siyosiy va iqtisodiy jihatdan ham to‘liq nazorat ostiga oldi. 1873-yilgi "do‘stlik shartnomasi" orqali Buxoroda Rossiya vakilining ruxsatisiz hech qanday siyosiy qaror qabul qilinmasligi qonuniylashtirildi. Bu esa amirni mustaqil davlat rahbari emas, balki Rossiyaning vassali darajasiga tushirib qo‘ydi. Bu shartnomma asosida Kogon shahrida joylashgan Rossiya vakili Buxoroning ichki va tashqi siyosatida amalda asosiy figuraga aylangan edi. Shunday qilib, bir vaqtlar Sibir xonlarini tayinlay olgan qudratli Buxoro amirligi tarix sahnasida o‘z mustaqilligini yo‘qotib, Rossiya mustamlakasiga aylanish yo‘lida chuqur iz qoldirdi. Ushbu maqola Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi jarayonini ilmiy asosda tahlil qilishni maqsad qiladi. Ayniqsa, bu bosib olish qanday bosqichlarda amalga oshirilgani, harbiy yurishlar, diplomatik bosimlar, shartnomalar va natijada shakllangan protektoratlik tuzilmasi asosiy e’tiborda bo‘ladi. Tarixiy manbalar, harbiy yozuvlar va arxiv materiallari asosida olib boriladigan tadqiqot mazkur jarayonning murakkab, ko‘p qirrali va davr geosiyosatiga bog‘liq jihatlarini yoritishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi haqidagi tarixiy voqealar bugungi kungacha bir qancha tarixchilar, tadqiqotchilar va harbiy yozuvchilarning e’tibor markazida bo‘lib kelmoqda. Bu voqealarning Markaziy Osiyodagi siyosiy chegaralarning shakllanishi, balki mustamlakachilik davrining boshlanishi sifatida ham chuqur o‘rganishga loyiqdirdi. Adabiy manbalarni tahlil qilish orqali biz bu tarixiy jarayonni qanday baholanganini, qanday uslub va nuqtai nazarlarda yoritilganini aniqlaymiz.

Rossiya tarixchilari tomonidan yozilgan manbalarda, odatda, bosib olish harakatlari “siyosiy zarurat”, “janubiy chegaralarning xavfsizligi” yoki “sivilizatsion taraqqiyot keltirish” kabi iboralar bilan izohlangan. Masalan, A.A. Kersnovskiy o‘zining *Istoriya russkoy armii* nomli asarida Rossiya harbiy yurishlarini “tartibsiz va

zaif tuzilgan musulmon davlatlari o‘rniga kuchli boshqaruv o‘rnatish” deya talqin qiladi [1]. Bunda u Jizzax jangida halok bo‘lgan 6 mingdan ortiq buxoroliklarni faqat sonli yo‘qotish sifatida tilga olib, mustamlakachilikning zo‘ravonlik jihatini kamaytirishga uringan.

Yevgeniy Andreyevskiy esa *Istoricheskiy vestnik* jurnalida e’lon qilingan “Iz zapisok za sorok sem let” asarida Rossiyaning O‘ratepa va Sirdaryo bo‘ylaridagi harbiy yurishlarini aniq sanalar va statistikalar asosida bayon qilgan [2]. Ammo u ham bu voqealarning mahalliy xalqlar hayotiga ko‘rsatgan og‘ir ta’siri haqida deyarli hech qanday mulohaza yuritmaydi. Boshqa tarafdan, zamonaviy tadqiqotchilar – xususan, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan tarixchilar bu jarayonni mustamlakachilik siyosati deb ochiq tan oladilar. Masalan, R. Mavlonovning “Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar” nomli maqolasida Rossiyaning harbiy strategiyasi, Buxoro ichki siyosatiga aralashuvi va iqtisodiy bosimlar bosqichma-bosqich oolib beriladi [3].

Shuningdek, X. Karimov va M. Sattorov singari tadqiqotchilar Rossiya imperiyasining iqtisodiy manfaatlari — xususan, Markaziy Osiyo bozorlariga kirish, sanoat ortiqchasini sotish va xomashyo manbalariga ega bo‘lish istagini asosiy omil sifatida ko‘rsatadi [4]. Ular o‘z maqolalarida 1868-yilgi shartnomalar, savdo bojxonalari, protektoratlik shartlari va Kogon shahri orqali nazorat qilish tizimi haqida tahliliy fikrlar bildiradilar. Ushbu qarashlar ingliz olimlari bilan hamohang. Masalan, Peter Hopkirk o‘zining “The Great Game” nomli mashhur asarida Rossiya va Britaniya o‘rtasidagi raqobat Buxoro kabi davlatlarning mustaqilligiga bevosita tahdid bo‘lganini yozadi [5].

Metodologik jihatdan ushbu maqolada tarixiy-tahliliy yondashuv asos qilib olindi. Ya’ni, voqealarning izchil ketma-ketligini aniqlash, harbiy yurishlar davomidagi siyosiy qarorlar, iqtisodiy shartnomalar, elchilik diplomatiyasi va xalq qarshilik harakatlarini birgalikda o‘rganishga harakat qilindi. Asosiy maqsad — Rossiya imperiyasining harbiy yurishlarini faqat kuch ishlatalish nuqtai nazaridan emas, balki geosiyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy omillar doirasida ko‘rib chiqishdan iborat bo‘ldi. Maqolada tahlil qilingan manbalar asosan tarixiy arxiv hujjatlari, harbiy qo‘mondonlar xotiralari, Vikipediya uslubida yozilgan ommabop ensiklopedik maqolalar hamda zamonaviy tarixiy tadqiqotlarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, zamonaviy o‘zbek tarixchilari tomonidan yozilgan monografiyalar ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qildi. Ayrim statistik ma’lumotlar esa Kaufman, Romonovskiy, va Chernyayev singari harbiy arboblar tomonidan yozilgan hisobotlardan olindi [6].

Bundan tashqari, maqolada ijtimoiy-siyosiy kontekst ham e’tibordan chetda kolmadi. Buxoro amirligining siyosiy tuzilmasi, harbiy qudrati, diniy mafkurasi va inglizlar bilan bo‘lgan diplomatik aloqalari ham tahlil etildi. Ayniqsa, ingliz

elchilarining Buxoroga yuborilishi va Amir Muzaffarning ular bilan aloqada bo‘lishi haqidagi ma’lumotlar tarixiy raqobat kontekstida o‘rganildi [7]. Bu bilan mustamlaka siyosati faqat bir tomonlama harbiy bosim emas, balki murakkab diplomatik o‘yinlar va ideologik kurashlar orqali amalga oshirilgani ko‘rsatildi. Shunday qilib, maqolada foydalanilgan manbalar va metodlar Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonini yanada chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Har bir manba tarixiy haqiqatga yaqinlashish uchun o‘z o‘rniga ega bo‘lib, ularning tanlovi voqealarga bирyoqlama emas, balki ko‘p qirrali yondashish imkonini berdi. Aynan shunday yondashuv bilan Buxoro amirligining Rossiya protektoratiga aylanishi murakkab, bosqichma-bosqich kechgan tarixiy voqelik sifatida o‘rganildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi – bu shunchaki bir hududning egallanishi emas, balki butun Markaziy Osiyo geopolitikasini o‘zgartirgan, yirik imperiyalar o‘rtasidagi strategik va ideologik to‘qnashuvlar natijasida yuzaga kelgan murakkab tarixiy jarayondir. Bu tarixiy bosqinchilik o‘zining har bir bosqichi, harbiy yurishlaridagi zo‘ravonligi, diplomatik nayranglari, iqtisodiy manfaatdorlik asosida qurilgan siyosati bilan, bugungi kunda ham ilmiy tahlil qilishga munosib boy tarixiy materiallarni taqdim etadi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi bilan bo‘lgan qarama-qarshilikda nafaqat harbiy kuch, balki siyosiy tayyorgarlik, zamonaviy tashkiliy strategiyalar, diplomatik va iqtisodiy moslashuvchanlik kabi jihatlardan ham ortda qolgan.

Eng avvalo, Rossianing Buxoroga yurishlarida asosiy harakatlantiruvchi omil strategik va iqtisodiy manfaatlar bo‘ldi. Rossiya imperiyasi o‘z janubiy chegaralarini xavfsiz holatga keltirish bilan birga, Britaniya imperiyasi bilan Hindiston ustidagi geopolitik raqobatda muhim nuqtalarni egallahshi istagan. Buxoro amirligi bu borada eng muhim hududlardan biri edi. Bu strategik holatni anglagan Rossiya harbiy-siyosiy elita bosqinchilik siyosatini bosqichma-bosqich, ehtiyyotkorlik bilan olib bordi. Avvaliga savdo aloqalari yo‘lga qo‘yildi, elchilar yuborildi, amirlikka iqtisodiy bosimlar ko‘rsatildi, ammo bu diplomatik vositalar kutilgan natijani bermagach, harbiy kuch ishlatishga o‘tildi.

Tahlillardan ko‘rinib turibdiki, Buxoro amirligi mustahkam ichki siyosiy tuzumga ega bo‘lmagan, harbiy jihatdan esa Rossiya bilan tenglasha olmaydigan darajada quvvatdan mosovo edi. Harbiy jihatdan Buxoro qo‘sishlari, ayniqsa Erjar, Jizzax va Zirabuloq janglarida, Rossianing zamonaviy artilleriyasi va strategik yurishlari qarshisida ojiz qoldi. Jizzaxdagi yo‘qotishlar – 6 ming buxorolik askarning halok bo‘lishi – amirlikning harbiy zaifligini ochiq ko‘rsatdi. Harbiy qo‘mondorlikda strategik fikrlash, zamonaviy qurollanish, va eng muhimi, markazlashtirilgan boshqaruv yetishmasligi sababli Buxoro qo‘sishlari tez-tez tarqoqlik, tartibsizlik va ichki nizolar bilan yuzlashgan. Shuningdek, kuchlar samarali safarbar etilmagan, xalq

harakati yetarlicha qo'llab-quvvatlanmagan, natijada Rossiya bilan bo'lgan har bir to'qashuv Buxoro tomoni uchun halokatli bo'lib chiqqan.

Siyosiy jihatdan olib qaraganda, Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi bilan teng huquqli diplomatik muloqot yurita olmagan. Amir Muzaffar tomonidan elchilar yuborilishi, tinchlik takliflarini rad etilishi yoki kechikib javob berilishi – buning yorqin dalilidir. Rossiya esa Kaufman va boshqa generallar orqali har bir harbiy g'alabani siyosiy bosim vositasiga aylantirib, shartnomalar takliflari bilan Buxoroni doimiy tanazzulga olib borgan. 1868-yilda tuzilgan sulu shartnomasida Rossiya o'ziga foydali bandlarni kiritib, Buxoroni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustaqillikdan mahrum etdi. 1873-yilda esa bu shartnomalar to'liq mustamlaka shakliga o'tdi – Rossiya tomonidan tayinlangan vakil Kogon shahrida amirlikni to'liq nazorat qila boshladi. Buxoro o'zining ichki va tashqi siyosatida mutlaqo qaror qabul qila olmaydigan, siyosiy irodasi yo'qotilgan, nomigagina mustaqil, lekin amalda vassal holiga kelgan edi.

Iqtisodiy jihatdan Rossiya Buxoroni faqat bosib olish bilangina cheklanmadi – balki amirlik ichkarisidagi savdo yo'llari, bozorlar, bojxona tizimi va infratuzilmani ham to'liq egalladi. Tovarlar bo'yicha 2,5 foizlik maxsus boj joriy qilindi. Rossiyalik savdogarlarga Buxoro bozorlarida erkin savdo qilish huquqi berildi. Bu esa mahalliy savdogarlarning iqtisodiy raqobatbardoshligini yo'qqa chiqardi. Buxoro ichki bozori Rossiya sanoati ortig'i bilan to'ldirildi, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning tanazzuli boshlandi. Aynan shuning uchun tarixchilarning ko'pchiligi bu jarayonni "iqtisodiy mustamlakachilik" deb ataydilar.

Boshqa tomondan, Buxoro amirligi va butun Markaziy Osiyo xalqlari uchun bu mustamlaka siyosatining madaniy va mafkuraviy natijalari ham muhim ahamiyatga ega. Rossiya imperiyasi o'z ta'sirini nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki ma'naviy-mafkuraviy sohalarda ham chuqur o'rnatdi. Masalan, rus tili va maorifi asta-sekin joriy qilina boshladi. Rus missionerlik siyosati orqali islom dini asoslari so'roq ostiga qo'yila boshladi. Ko'plab masjidlar, madrasa va diniy muassasalar nazoratga olindi. Shu bilan birga, ayrim mahalliy zodagonlar Rossiya bilan hamkorlik qilgan holda, o'z manfaatlarini himoya qilishga urinib, ijtimoiy tafovutni chuqurlashtirib yubordi. Yuqorida tahlillar asosida shuni aytish mumkinki, Buxoro amirligining Rossiya tomonidan bosib olinishi, tarixda "imperiyalar to'qashuvi" sifatida emas, balki kichik, markazlashmagan, ichki harbiy, siyosiy va iqtisodiy zaifliklarga ega bir davlatning yirik mustamlakachi kuch tomonidan bosib olinishi sifatida ko'riladi. Bu jarayon Buxoroning siyosiy mustaqilligini yo'qotish, iqtisodiy ekspluatatsiya, diniy-madaniy bosimlar va xalq ruhiyatining pasayishi bilan yakunlandi. Shunga qaramasdan, bu tarixiy tajriba keyinchalik milliy uyg'onish, jadidchilik va mustaqillik uchun harakatlar boshlangan davrga tayanch bo'lib xizmat qildi.

XULOSA

Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi — nafaqat Markaziy Osiyo tarixidagi muhim siyosiy burilish, balki butun musulmon shargining XIX asr mustamlakachilik davri bilan yuzma-yuz kelgan eng keskin jarayonlaridan biridir. O'tkazilgan tadqiqotlar va tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki, Rossiya imperiyasi Buxoroni bosib olishga harbiy kuchdan tashqari diplomatik bosim, iqtisodiy manfaatdorlik va geostrategik raqobat tamoyillari asosida yondashgan. Inglizlarning Markaziy Osiyo bozorlariga kirish niyati va Buyuk Britaniya–Rossiya o'rtaqidagi "Buyuk o'yin"da Buxoro o'z strategik pozitsiyasi bilan Rossianing e'tibor markaziga aylangan.

Amirlik tomonidan ko'rsatilgan harbiy qarshiliklar, xususan Zirabuloq jangi, Erjar to'qnashuvi va Samarqanddagi voqealar — Rossiyaning texnik, harbiy va tashkilotchilik ustunligini tasdiqladi. Buxoro amirligining ichki siyosiy zaifligi, harbiy salohiyatning eskirganligi va tashqi diplomatik yakkalanishi esa mag'lubiyatga asosiy sabab bo'ldi. Natijada 1868-yilda imzolangan sulk va 1873-yilgi "do'stlik" shartnomalari orqali Buxoro amirligi Rossiya imperiyasi protektoratiga aylandi. Ushbu tarixiy jarayon Markaziy Osiyoning keyingi siyosiy va ijtimoiy rivojlanishida tub burilish yasadi. Rossianing mustamlakachilik siyosati natijasida Buxoro amirligi o'z suverenitetini yo'qotdi, ammo bu voqealar mahalliy ziyolilar orasida uyg'onish va jadidchilik harakatlarining shakllanishiga ham turtki bo'ldi. Tarixiy saboq shuki, kuchli tashqi tahdidlar qarshisida faqat siyosiy birlik, iqtisodiy mustaqillik va madaniy o'zlikni anglash asosida barqaror qarshilik ko'rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Andreyevskiy, Y. K. (1890). *Iz zapisok za sorok sem let*. Istoricheskiy Vestnik, 130, 37.
2. Kersnovskiy, A. A. (1993). *Istoriya russkoy armii* (Vol. 2). Moskva: Golos.
3. Shoabdurahmonov, Sh. R. (2000). *O'zbekiston tarixi* (3-tom). Toshkent: O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi.
4. Bobojonov, S. (2010). *Buxoro amirligi va Rossiya munosabatlari*. Toshkent: Fan nashriyoti.
5. Mukhamedov, A. (2005). *Imperiyalar to'qnashuvi: XIX asrda Rossiya va Buyuk Britaniyaning Markaziy Osiyo uchun kurashi*. Toshkent: Universitet nashriyoti.
6. Holiknazarov, A. (1998). *Buxoro tarixinining ayrim sahifalari*. Samarqand: Ilmiy meros.
7. Karimov, I. A. (1998). *Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q*. Toshkent: O'zbekiston.
8. Wikipedia. (2025, iyun 28). *Buxoro amirligining bosib olinishi*. https://uz.wikipedia.org/wiki/Buxoro_amirligining_bosib_olinishi
9. Daryo.uz. (2025, iyun 28). *Buxoro amirligi Rossiya protektoratiga aylanganiga 152 yil to'ldi*. <https://daryo.uz>
10. Yusupov, B. (2018). *Rossiya imperiyasining Markaziy Osiyodagi siyosati*. Toshkent: Ijtimoiy fanlar akademiyasi nashriyoti.